

словарный диктант, выборочный диктант, объяснительный диктант, самодиктант, графический диктант, переводческий диктант преобразованы в интерактивные диктанты.



Рисунок 1. Мобильное приложение «Savodxon»: обложка, разделы, модули, упражнения.

После самостоятельного выполнения дома задач, поставленных в данном мобильном приложении

Литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан УП-5850 “О мерах коренного повышения престижа и статуса узбекского языка в качестве государственного языка от 21 октября 2019 года” (<http://lex.uz/docs/4561730>).
2. Указ Президента Республики Узбекистан УП-5847 “Концепция развития высшей образовательной системы Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года. <http://lex.uz/docs/4545884>.
3. Юлдашева Ш. Современные информационные технологии в обучении узбекскому языку. Сборник лекций. – Нукус: 2017.
4. Магомедова К.Т. Этапы развития электронного обучения и их влияние на появление новых технологических стандартов качества электронного обучения. Bulletin of the South Ural State University. Ser. Education. Educational Sciences. 2015, vol. 7, no. 2, pp. 22–29. <https://vestnik.susu.ru/ped/article/viewFile/3647/3335>
5. Declan Byrne, Blended learning. http://www.trainingreference.co.uk/blended_learning/bldacg1.htm

РЕЗЮМЕ

Маколада ўзбек тили машғулотларини аралаш таълим асосида ташкил қилишнинг принциплари, босқичлари, усуллари ҳақида сўз юритилади. Аралаш таълим учун ўзбек тилида контент яратиш ва ундан фойдаланишнинг ўзига хослиги, бунда анъанавий таълим ва электрон таълимни уйғунлаштиришнинг баъзи масалалари таҳлил қилинади. Хулосада аралаш таълимни татбиқ қилиш жараёнидаги қийинчиликлар борасидаги мулоҳазалар келтирилиб, мазкур таълимни самарали ривожлантириш йўллари кўрсатиб берилади.

РЕЗЮМЕ

В статье идет речь о принципах организации занятий узбекского языка на основе смешанного обучения. Анализируются некоторые вопросы создания контента на узбекском языке для смешанного обучения и своеобразия его применения, гармонии традиционного и электронного образований. В выводах приводятся обсуждения по трудностям процесса пропаганды смешанного обучения, указываются пути эффективного развития данного вида обучения.

SUMMARY

The article discusses the principles, stages, and methods of organizing Uzbek language classes on a mixed basis. The peculiarities of creating and using Uzbek language content for mixed education are explored in some of the issues of integrating traditional education and e-learning. The conclusion provides an overview of the challenges of implementing a mixed education approach and outlines the ways in which this education can be effectively developed.

CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY IZLANISHLAR VA O'YINLI TEXNALOGYALARDAN FOYDALANISH (Charxpalak metodi misolida)

N.O.Yakubova – o'qituvchi

Guliston davlat universiteti

Tayanch so'zlar: chizma, qobiliyat, tasavvur qilish, fazoviy tasavvurlarini shakllantrish, idrok, modellashtrish, fa'oliyat.

Ключевые слова: чертёж, способности, воображение, формирование пространственного воображения, восприятие, моделирование, деятельность.

Key words: drawing, ability, imagination, formation of spatial imagination, perception, modeling, activity.

Ta'lim samaradorligini oshirishda talabalarga topshiriq qilib beriladigan masalalar (grafik ishlar tizimi) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalani mohiyatini ochish borasida talaba ma'lum ma'noda izlanishlar olib boradi. Izlanishlar borasida talaba berilgan topshiriqqa oid ma'lum turdagi bilimlarga ega bo'ladi [5:56]. Ushbu bilim manbaalari talabalarga o'quv-bilish faollashtirish, ularga biror bir masala berilganda ijodiy echa olish, mustaqil va tanqidiy fikirlash, o'z nuqtai – nazarini ishlab chiqa olish va himoya qila olish, shunigdek o'z bilimini muttasil to'ldirib borish va uni o'z faoliyatida qo'llay olish singari xislatlarni tarbiyalaydi.

Charxpalak metodida berilgan har bir masala, yoki grafik ish tizimi, qaysi fan bo'lishidan qat'i nazar u tob ma'noda talabalarni bilishga undaydi.

Shu o'rinda bilish faoliyatiga qisqacha ta'rif berib

o'tamiz.

“Bilish faoliyati” tushunchasi “O'quv faoliyati” tushunchasidan ancha keng. Bilish faoliyatining mazmuniy tomoni o'quv dasturlariga asoslangan formal o'qitish doirasidan chiqadi. Bilish faoliyati inson qurollanishi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikma shunigdek, unga zarur bo'lgan ijtimoiy faollik va muhitnigina emas, balki ehtiyojlariga bog'liq ravishda uni tanlay olish, tashkil eta olish va uni hayotga tatbiq etishni shakllantrishdir.

- Bilishga tayyorlash;
- Bilish faoliyatining masala va ko'nikmalari;
- Bilish faoliyatiga ehtiyoj;

Bilish faoliyatini uch darajaga bo'lish mumkin

Birinchi daraja qayta tiklash faolligi o'quvchi materialni yod olish va qayta aytib berish, aytib berish uni namunaga oid tadbiiq qilish bilan ajraladi.

Ikkinchi daraja izohlovchi faollik bu o'quvchining o'rganilayotgan materyalni anglab etishga uni ma'lum tushunchalar bilan bog'lashga bilimini yangi sharoitida tadbiq qilishga harakat namoyon bo'ladi.

Uchunchi daraja faollik bu o'quvchining masalani yangi echimini topishga qiziqish va harakat qilish bilan xarakterlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishi ijodiy izlanishi talab qiladigan masalalarni uch bosqichga bo'lamiz.

Birinchi bosqich – talaba olgan bilimlarini jalb etgan holda masalani echa olishi.

Ikkinchi bosqich – talabaning olgan bilimlari etishmay zahiradagi bilimlari yani masalaning boshqa echilgan masalalar bilan taqqoslab biror –bir echimga kelishi.

Uchunchi bosqich talabaning olgan bilimlari masalani hal etishga o'zlik qilib yordamchi kuchlarga tayanadi, bu o'rinda yordamchi kuchlar bo'lib qo'shimcha adabiyotlar yuzaga chiqadi.

Masalani ushbu bosqichlarda berilishi talabalarni ijodiy izlanishi olib borishga undaydi. Ijodiy izlanish doirasida talabaning fan bo'yicha o'rganishi lozim bo'lgan shunigdek mavzu bo'yicha bilim ko'nikma va malakasi oshadi bir so'z bilan aytilganda talaba ilmiy izlanishi olib borishiga, shunigdek qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashiga o'rganadi.

O'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shahs rivoji va ular negizida shakillangan pedagogik fanlarning ta'moyili va qoydalari yotadi [2:102]. Insonning bilish faoliyati jarayonida mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil- muammolikka tayanagan holda olib boriladi. Chizmachilik fanida, chizma geometriya qonunlari yordamida faqat ko'rinib turgan buyum emas, balki ijodkor tasavvuridagi narsa yoki shakillarning tekislikdagi tasvirlarini yasash usullarini hosil qilish o'zaro joylashishlariga oid masalalarni echish usullari bajariladi.

Aytib o'tganimizdek usul va bilimlar yordamida proeksiyalash usullariga asoslanib jisimlarning tekislikdagi chizmalari hosil qilinadi. Bu chizmalar yordamida detallar, mashinalar va ularning qisimlari ishlab chiqiladi. Har bir muhandis mutahassis chizmachilik standartlarining talablariga asosan buyum chizmasini mustaqil tuzish va uni to'g'ri o'qishi, chizmalardan mohirona foydalanib, o'z fikrini to'g'ri bayon eta olishi lozim.

Tasvirlar maktabdagi ko'pchilik fanlar bo'yicha yangi bilimlarni o'quvchilar fa'ol va ongli ravishda o'zlashtirishlarida eng asosiy vositalardan biri sanaladi. Ular bilimlarning sezgi asosini ta'minlaydi va o'quvchilarda bizni o'rab turgan olam va undagi narsalar haqida yaqqol, aniq va to'g'ri tasavvurlarni hosil qilish maqsadlarini ko'zda tutgan. O'quv jarayonida grafikani qo'llashni ilmiy asislari hozirgacha ytarlicha yaxshi ishlab chiqilmagan [3:5].

O'qitishning hozirgi kundagi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat yaratish, kutilmagan xayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan hulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitishning bu sharoitida insonning o'sha psixik, emosional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga hos vazifasini bajaradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga hos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Mamlakati-mizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib

bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakillantrish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustaxkam zamin yaratmoqda [1:29]. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlar qatorida yosh mustaqil O'zbekistonimizda ham bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajribada asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Ta'kidlab o'tish joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda haqiqatni va unung natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi. Talabalarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish, fikrlash faoliyatini muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg'ulot jarayonida muammoni ifodalab berishdan iborat bo'ladi, ya'ni ushbu damda unga nima ma'lum bo'lsa, so'z bilan ifodalab beradi, so'ngra muammoning echilish usullarini qidiradi va bunda turli tahminlarni o'rganadi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi, izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.




O'rganilayotgan o'quv materyallariga dars jarayonida o'yin elementlarini kiritish o'quvchilarning shu fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bolalarning grafik tayyorgarligining o'yin vositasida faollashtirish uchun chizmachilikning katta imkoniyatlari bor.

Didaktik o'yin singari darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar bolalarning fazoviy tasavvur va faraz qilish qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmay, o'quvchilarda kombinatsiyalash uquvini tarkib topishda yordam beradi. O'quvchi-yoshlarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Texnik ijodda ham chizmachilik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, texnik g'oya, eng avvalo, miyada paydo bo'ladi, undan keyin qog'ozda o'z aksini topadi. Texnik g'oya materiallashgan holga aylangunga qadar yuqorida aytilgan uchta bosqichdan o'tadi. Chizmachilikda loyihalashga doir masalalarni bajarishda faqat birinchi va ikkinchi bosqich ishtirok etishi mumkin. Birinchi bosqichda g'oyaning paydo bo'lishi o'rnida obektning tugallanmagan chizmasi beriladi, ikkinchi bosqichda esa materiallashadigan obektning echimi bajariladi [4:278].

Shularni hisobga olgan holda biz zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bir qancha metodlarini geometrik chizmachilik darslarida tadbiq qilib, moslashtirib ishlab chiqishga harakat qildik. Bunda birinchi novbatda texnologik xarita tuzish kerakligi, dars mavzusiga oid ma'lumotlar hamda talabalar olgan bilimlarini baholashlari uchun biror bir metod tadbiq qiladi. Biz quyidagi yangi pedagogik texnologiyadan o'yinli texnologiyalarni chizmachilik darslariga tadbiq qilishni ko'rib chiqamiz. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi, qiziqitiruvchi faoliyatni tashkil etib boradi. O'yin mehnat va o'qish bilan uzviy bog'langan faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli texnologiyalar o'zining ijodiyligi bilan ajralib turishni ko'ramiz. Pedagogik o'yinlarda faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi va soha xususiyatlari o'yin muhiti bo'yicha bayon qilinadi. Quyida o'yinli texnologiyalardan misollar keltiramiz. Chizmachilikka oid o'z – o'zini baholash "Charxpalak" metodida keltirilgan.

O'z – o'zini baholash (Charxpalak) uslubi jadvalda keltirilgan detal yaqqol tasvirlaridan foydalanib uni qanday geometrik sirtlardan tashkil topganligini aniqlang.

№	Detal yaqqol tasvirlari	Gyometrik sirtlarning turlari						To'g'ri javob
		Sfera	Prizma	Konus	Silindr	Piramida	Parallel piped	
1								
2								
3								

Bu uslubning vazifasi jadvaldagi berilgan detalning yaqqol tasviriga asosan uni qanday geometric sirtlardan tashkil topganligini aniqlash talab qilinadi.

Bu metod yordamida bitta o'quvchini emas, balki guruh – guruhga ajratib ular o'rtasida musobaqa shaklida o'tkazish ham mumkin. Bu metod orqali o'qituvchi, o'quvchi va talabalarga nafaqat nazariy bilim beradi, balki shu bilan birga ularning olgan bilimlarini aniqlashi ham mumkin.

O'quvchilarning o'zlashitirishlari turlicha, amaliyotdan ma'lumki xonadagi 20 ta yoki 30 tagacha bo'lgan o'quvchilarning hammasi ham birday fikrlash, tasavvur qilish qobiliyatiga ega emas. Shuni hisobga olgan holda o'quvchilarni albatta o'yinli metodlardan foydalanib, ularning fazoviy tasavvurini shakllantirish maqsadida topshiriqlarni murakkablik darajasini belgilash lozim. Bu chizmalarda oddiydan murakkabga qarab yo'naltiradi. O'quvchilarni bilim darajasini tekshirishda albatta bu metodlar qo'l keladi.

Adabiyotlar

1. O'zA- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020yil, 24-yanvar.
2. Abdullayev U. Chizma geometriya va chizmachilik asoslari. –T.: 1999.
3. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik ta'limi konsepsiyasi" – Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
4. Xorunov R. "Chizma geometriya kursi" –Toshkent: «O'qituvchi», 1999.
5. Umronxo'jaev A. "Maktabda chizmachilik o'qitishni takomillashtirish" –Toshkent: «O'qituvchi», 1993.

REZYUME

Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlarning didaktik tamoyil, muammolikka tayanadi. O'quvchilar o'z ishlarida didaktik o'yinlarning turli xillaridan foydalanib dars jarayoni samaradorligini oshirishga erishadi. Chizmachilik darslari orqali bola dunyo qarashini, fazoviy tasavvurini shakllantirish, hamda modellashtirish va konstruksiyalash bo'yicha muhandislik grafikasi maqsadi aytib o'tilgan.

PEZIOME

В основе процесса познавательной деятельности человека лежит проблема дидактического принципа объективных закономерностей при разрешении логических когнитивных противоречий. Излагается цель инженерной графики в формировании мировоззрения, пространственного восприятия ребёнка, а также моделирования и конструирования через уроки рисования.

SUMMARY

The process of human cognitive activity is based on the problem of the didactic principle of objective regularities in resolving logical cognitive contradictions. The purpose of engineering graphics in the formation of the worldview, spatial perception of the child, as well as modeling and design through drawing lessons is stated.

Keyingi vaqtlarda darsda didaktik o'yinlardan foydalanishga etibor kuchaymoqda. O'quvchilar o'z ishlarida didaktik o'yinlarning turli hillaridan foydalanib dars jarayoning samaradorligini oshirishga erishmoqdalar. O'quvchilarni narsalarning to'g'ri burchakli proeksiyalariga ko'ra ularning aksonometriyalarni yasashga o'rgatish chizmachilik o'qitish amaliyotida eng murakkab mavzudur. Chunki o'qituvchi ikki yoki uchta proeksiya bo'yicha predmetning fazoviy tasvirini ko'z oldiga keltirish kerak. Boshqacha qilib aytganda tekis shakllardan hajim yaratadi. Ta'limning dastlabki davrida bu ish o'quvchilarda ancha qiyinchilik tug'diradi. Tajribalar aksonometrik proeksiyalarni o'rganishda o'yin harakteridagi qo'llanmalardan foydalanish ijobiy natijalar berishini ko'rsatmoqda. O'yinda ikki, uch o'quvchi qatnashishi mumkin. O'yin qatnashchilari yaqqol tasvir bo'yicha kartalardagi ko'rinishlarni proeksiyon holatga keltrib, buyumning kompleks chizmasini tuzadilar.

O'yin qoidasi.

✓ Kartalar aralashtirilgandan so'ng o'yin qatnashchilarining har biri oltitadan karta oladilar.

✓ Texnik rasim chiqqunga qadar qolgan kartalardan birin – ketin ochib o'rtaga tashlanadi.

✓ Shundan keyin birinchi ishtirokchi texnik rasimga mos bo'lgan birorta kartani davra stoliga "tashlaydi".

✓ Agar birinchi ishtirokchidan o'rtadagi texnik rasimga mos keladigan karta topilmasa yoki bo'lsa ham uni taniy olmasa, u holda o'rtadagi ochilmagan kartalarning birini oladi. Agar olingan karta texnik rasimga mos kelmasa, "yurishni" ikkinchi ishtirokchi davom ettiradi.

O'yin faqat bitta kishida karta tamom bo'lgunga qadar davom etaveradi. Qo'ldagi kartalarni birinchi bo'lib tugatgan ishtirokchi o'yin g'olibi hisoblanadi. Bu o'yin didaktik jarayonda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlari-ning qo'zg'aluvchanligi rivojlanibgina qolmay, balki tafakkurning muhim bo'lgan sifati – kobinassiyalasshuquvi ham shakllanadi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda talabalarga topshiriq qilib beriladigan masalalar (grafik ishlar tizimi) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaning mohiyatini ochish borasida talaba ma'lum ma'noda izlanishlar olib boradi. Izlanishlar borasida talaba berilgan topshiriqqa oid ma'lum turdagi bilimlarga ega bo'ladi. Ushbu bilim manbaalari talabalarga o'quv-bilish faollashtirish, ularga biror bir masala berilganda ijodiy echa olish, mustaqil va tanqidiy fikirlash, o'z nuqtai – nazarini ishlab chiqa olish va himoya qila olish, shunigdek o'z bilimini muttasil to'ldrib borish va uni o'z faoliyatida qo'llay olish singari xislatlarni tarbiyalaydi.

Charxpalak metodida berilgan har bir masala, yoki grafik ish tizimi, qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar u tub ma'noda talabalarni bilishga undaydi.